QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.096

SHAXS LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mansurova Lobar Luqmon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. XXI asrda ta’lim tizimining modernizatsiyalashuvi pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirdi. Endilikda pedagog nafaqat o‘quv jarayonini tashkil etuvchi mutaxassis, balki ta’lim muhitida hamkorlikni yo‘lga qo‘yuvchi, jamoani ilhomlantiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi va innovatsion tashabbuslarni ilgari suruvchi lider sifatida ham namoyon bo‘lishi lozim. Shu sababli shaxsda liderlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Kalit so’zlar: yetakchilik fenomeni, shaxsiy salohiyat, kasbiy shakllanish, ijtimoiy ta’sir, refleksiv yondashuv, pedagogik innovatsiya, mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy boshqaruv, motivatsion omillar, ta’limiy hamkorlik, strategik tafakkur, axloqiy yetakchilik, kompetensiyaviy yondashuv, bo‘lajak mutaxassis modeli, uzluksiz rivojlanish.

Аннотация. Модернизация системы образования в XXI веке коренным образом изменила требования, предъявляемые к личности педагога. В настоящее время педагог должен выступать не только специалистом, организующим образовательный процесс, но и лидером, способным выстраивать сотрудничество в образовательной среде, вдохновлять коллектив, регулировать социальные взаимоотношения и продвигать инновационные инициативы. В связи с этим формирование и развитие лидерских качеств личности признаётся одной из наиболее актуальных научных проблем современной педагогики.

Ключевые слова: феномен лидерства, личностный потенциал, профессиональное становление, социальное влияние, рефлексивный подход, педагогические инновации, самостоятельное принятие решений, коллективное управление, мотивационные факторы, образовательное сотрудничество, стратегическое мышление, этическое лидерство, компетентностный подход, модель будущего специалиста, непрерывное развитие.

Abstract. The modernization of the education system in the 21st century has fundamentally transformed the requirements imposed on teachers. Today, a teacher is expected to act not only as a specialist who organizes the educational process but also as a leader capable

of fostering collaboration within the educational environment, inspiring a team, managing social relationships, and promoting innovative initiatives. Therefore, the formation and development of leadership qualities have become one of the most pressing scientific issues in contemporary pedagogy.

Keywords: leadership phenomenon, personal potential, professional development, social influence, reflective approach, pedagogical innovation, independent decision-making, team management, motivational factors, educational collaboration, strategic thinking, ethical leadership, competency-based approach, future specialist model, continuous development.

KIRISH.

Jahon miqyosida ta’lim sifatini baholash mezonlarining o‘zgarishi, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi va XXI asr kompetensiyalariga bo‘lgan ehtiyoj liderlik kompetensiyalarini zamonaviy mutaxassisning ajralmas tarkibiy qismi sifatida e’tirof etishga olib keldi. OECD, UNESCO hamda World Economic Forum ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan konseptual hujjatlarda liderlik tanqidiy fikrlash, hamkorlik, kommunikativ kompetensiya va kreativlik bilan bir qatorda XXI asrning tayanch kompetensiyalaridan biri sifatida baholanadi. Bu esa oliy ta’lim tizimida liderlikni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Liderlik tushunchasi turli fanlar doirasida turlicha talqin qilinadi. Psixologiyada u shaxsning individual xususiyatlari va boshqalarga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati bilan bog‘lansa, menejmentda tashkilot maqsadlariga erishishni ta’minlovchi boshqaruv jarayoni sifatida qaraladi. Pedagogikada esa liderlik shaxsning ta’lim muhiti sharoitida o‘z salohiyatini namoyon etishi, jamoani umumiy maqsad sari yo‘naltirishi hamda ijtimoiy hamkorlikni samarali tashkil etish kompetensiyasi sifatida talqin etiladi. Aynan pedagogik yondashuv liderlikni shaxsning tug‘ma sifati emas, balki ta’lim jarayonida shakllanadigan va rivojlantiriladigan kompetensiya sifatida izohlashi bilan ajralib turadi.

P. G. Northouse (2022) liderlikni “umumiy maqsadga erishish uchun shaxsning guruh faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish jarayoni” sifatida ta’riflaydi. Mazkur ta’rifda liderlikning asosiy elementi sifatida hokimiyat yoki rasmiy lavozim emas, balki o‘zaro ta’sir va hamkorlik jarayoni e’tirof etiladi. Muallifning fikricha, samarali liderlik individual sifatlar, guruh dinamikasi va vaziyat omillarining o‘zaro uyg‘unligi natijasida yuzaga keladi. Bu yondashuv pedagogik ta’lim jarayonida liderlikni rivojlantirishni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan emas, balki talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Transformatsion liderlik nazariyasining asoschilaridan biri B. M. Bass (2008) esa liderlikni rivojlantirish mumkin bo‘lgan kompetensiya sifatida baholaydi. Olimning ta’kidlashicha, samarali lider o‘z izdoshlarini umumiy maqsad sari ruhlantiradi, ularda ichki motivatsiyani shakllantiradi hamda innovatsion fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu jihatdan transformatsion liderlik nazariyasi pedagogik ta’limda talabalarning tashabbuskorligi, ijodkorligi va mas’uliyatini rivojlantirishning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Liderlikni rivojlantirishning uzluksiz tabiati D. V. Day (2001) tomonidan chuqur ilmiy asoslangan. Muallif «leader development» va «leadership development» tushunchalarini farqlab, birinchisi individual salohiyatni rivojlantirishga, ikkinchisi esa jamoaviy hamkorlik, ijtimoiy munosabatlar va umumiy faoliyatni samarali tashkil etish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganligini ta’kidlaydi. Dayning konsepsiyasi liderlikning butun hayot davomida rivojlanadigan uzluksiz pedagogik jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

B. J. Avolio, F. O. Walumbwa va T. J. Weber (2009) zamonaviy liderlik nazariyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda liderlikning mazmuni sezilarli darajada kengayganini qayd etadilar. Mualliflar autentik, etik, xizmatkor va transformatsion liderlik yondashuvlarining rivojlanishini tahlil qilib, zamonaviy liderning muvaffaqiyati uning emotsional intellekti, axloqiy qadriyatlari, kommunikativ madaniyati va o‘zgarishlarni boshqara olish qobiliyati bilan belgilanishini asoslaydilar.

J. E. Dinh va hammualliflar (2014) esa zamonaviy liderlik nazariyalarining evolyutsiyasini tahlil qilib, 60 dan ortiq nazariy yondashuvlarni tizimlashtirgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda liderlikka oid ilmiy qarashlar individual xususiyatlardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy munosabatlar, hamkorlik, ishonch va jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etish masalalariga yo‘naltirilgan. Bu esa pedagogik ta’lim tizimida liderlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda shaxslararo munosabatlar va hamkorlik texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshiradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan bibliometrik tadqiqotlar ham oliy ta’limda liderlikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar soni keskin ortganini ko‘rsatmoqda. Scopus ma’lumotlar bazasida 2013–2023-yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy ishlar tahlili liderlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari liderlik kompetensiyalarini shakllantirish, ta’limdagi innovatsiyalar, raqamli transformatsiya va talabalar liderligini rivojlantirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Liderlik nazariyalarining evolyutsiyasi va pedagogik ta’limdagi ahamiyatining qiyosiy tahlili

Nazariya	Asosiy vakillari	Nazariyaning mazmuni	Kuchli jihatlari	Cheklangan jihatlari	Pedagogik ta’limdagi ahamiyati
Xususiyatlar (Trait) nazariyasi	T. Carlyle, F. Galton, R. Stogdill	Liderlik tug‘ma shaxsiy sifatlar bilan belgilanadi.	Liderlikning individual omillarini aniqlaydi.	Ta’lim va muhit ta’sirini yetarli hisobga olmaydi.	Talabalarda mavjud individual salohiyatni aniqlash va rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.
Xulq-atvor (Behavioral) nazariyasi	Ohio State, Michigan maktabi	Liderlik samaradorligi liderning xulq-atvori va boshqaruv uslubiga bog‘liq.	Liderlikni o‘qitish va rivojlantirish mumkinligini asoslaydi.	Vaziyat omillarini yetarlicha hisobga olmaydi.	Faol o‘qitish metodlari orqali liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Situatsion nazariya	F. Fidler, P. Hersey, K. Blanchard	Liderlik uslubi vaziyatga mos ravishda o‘zgarishi kerak.	Moslashuvchan boshqaruvni rivojlantiradi.	Vaziyatni baholash murakkab.	Bo‘lajak pedagoglarda moslashuvchan qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.
Transformatsion liderlik	J. Burns, B. Bass	Lider boshqalarni ilhomlantiradi, motivatsiyasini oshiradi va rivojlanishga undaydi.	Innovatsion fikrlash va motivatsiyani kuchaytiradi.	Har doim barcha vaziyatlarga mos kelmaydi.	Talabalarda tashabbuskorlik, kreativlik va mas’uliyatni shakllantiradi.
Autentik liderlik	B. Avolio, W. Gardner	Lider ochiqlik, halollik va o‘z qadriyatlariga sodiqlik asosida faoliyat yuritadi.	Ishonch va axloqiy mas’uliyatni kuchaytiradi.	Shaxsiy refleksiyani talab qiladi.	Pedagogning kasbiy etikasi va refleksiv kompetensiyasini rivojlantiradi.
Xizmatkor (Servant) liderlik	R. Greenleaf	Lider avvalo boshqalarga xizmat qilishni maqsad qiladi.	Hamkorlik va insonparvarlikni rivojlantiradi.	Raqobat muhitida samaradorligi cheklanishi mumkin.	Ta’lim jarayonida talaba shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi.
Relatsion (Relational) liderlik	M. Uhl-Bien, J. Dinh va boshqalar	Liderlik samarali ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi.	Hamkorlik va jamoaviy faoliyatni rivojlantiradi.	Individual lider xususiyatlarini ikkinchi darajaga qo‘yadi.	Pedagogik hamkorlik va jamoaviy ta’limni rivojlantirish uchun nazariy asos yaratadi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogikada liderlik shaxsning tug‘ma xususiyati emas, balki maqsadli tashkil etilgan pedagogik ta’sirlar, ta’lim muhiti, ijtimoiy tajriba va hamkorlik faoliyati orqali shakllanadigan murakkab kompetensiya sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda liderlikning umumiy nazariy asoslari keng yoritilgan bo‘lsa-da, pedagogik ta’lim jarayonida talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirishning metodik mexanizmlari hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etmoqda. Mazkur holat ushbu dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini belgilaydi.

Liderlik fenomeni insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelgan murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisalardan biridir. Mazkur tushuncha dastlab siyosatshunoslik va harbiy boshqaruv doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya, menejment, sotsiologiya va pedagogika fanlarining muhim tadqiqot obyektiga aylandi. Natijada liderlikning mohiyati, shakllanish omillari va rivojlanish mexanizmlarini izohlovchi ko‘plab ilmiy nazariyalar vujudga keldi.

Liderlikni ilmiy jihatdan izohlashga qaratilgan dastlabki yondashuvlar xususiyatlar nazariyasi (Trait Theory) bilan bog‘liq. Mazkur nazariyaga ko‘ra, liderlik insonning tug‘ma sifatlari bilan belgilanadi va ayrim shaxslar boshqalarga nisbatan tabiiy ravishda boshqaruv salohiyatiga ega bo‘lib tug‘iladi. T. Carlyle, F. Galton hamda R. Stogdilllarning dastlabki tadqiqotlarida intellekt, qat’iyat, jasorat, mas’uliyat va tashabbuskorlik kabi individual fazilatlar liderlikning asosiy determinantlari sifatida e’tirof etilgan. Biroq keyingi ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, bir xil shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lgan insonlar turli vaziyatlarda turlicha liderlik natijalarini namoyon etadilar. Shu sababli liderlikni faqat biologik yoki psixologik xususiyatlar bilan izohlash yetarli emasligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Trait nazariyasining cheklangan jihatlari XX asrning 50–60-yillarida xulq-atvor nazariyalari (Behavioral Theory) rivojlanishiga turtki berdi. Ushbu yondashuv vakillari liderning muvaffaqiyati uning shaxsiy fazilatlaridan ko‘ra, namoyon etayotgan xulq-atvori va boshqaruv uslubiga ko‘proq bog‘liq ekanligini ta’kidladilar. Ohio State University hamda Michigan University ilmiy maktablari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar liderlikning ikki asosiy komponentini – vazifaga yo‘naltirilganlik va insoniy munosabatlarga yo‘naltirilganlikni ajratib ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim jarayonida liderlik kompetensiyalarini maxsus pedagogik metodlar yordamida rivojlantirish mumkinligini isbotladi.

Keyinchalik F. Fidler, P. Hersey va K. Blanchard tomonidan ishlab chiqilgan situatsion liderlik nazariyalari liderlik samaradorligi vaziyat omillariga bog‘liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, samarali lider yagona boshqaruv uslubiga tayanmaydi, balki jamoaning tayyorgarlik darajasi, faoliyat mazmuni va tashqi muhit omillarini hisobga olgan holda o‘z xulq-atvorini moslashtiradi. Ushbu yondashuv pedagogik ta’lim tizimida ayniqsa dolzarb bo‘lib, bo‘lajak pedagoglardan turli ta’limiy vaziyatlarda moslashuvchan liderlik ko‘nikmalarini namoyon eta olishni talab qiladi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab liderlik nazariyalarining rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi. Bu davrda transformatsion liderlik nazariyasi shakllanib, uning ilmiy asoslari J. Burns hamda B. Bass tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur nazariyada liderlikning asosiy vazifasi boshqaruvni amalga oshirish emas, balki insonlarni umumiy maqsad sari ilhomlantirish, ularning ichki motivatsiyasini kuchaytirish va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdan iborat ekanligi ta’kidlandi. Bass (2008) transformatsion liderlikni intellektual rag‘batlantirish, individual yondashuv, ilhomlantiruvchi motivatsiya hamda ideal ta’sir kabi to‘rtta asosiy komponent orqali tavsiflaydi. Mazkur yondashuv bugungi kunda pedagogik liderlik nazariyasining metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Transformatsion liderlik nazariyasining rivojlanishi zamonaviy liderlik konsepsiyalarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Xususan, autentik liderlik, etik liderlik, xizmatkor (servant) liderlik, adaptiv liderlik va munosabatlarga asoslangan (relational) liderlik nazariyalari shaxsning axloqiy qadriyatlari, emotsional intellekti, ijtimoiy mas’uliyati va hamkorlik kompetensiyalarining liderlikdagi rolini yanada chuqurroq ochib berdi.

Avolio, Walumbwa va Weber (2009) zamonaviy liderlik nazariyalarini umumlashtirar ekan, XXI asr liderining muvaffaqiyati avvalo uning o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi, boshqalar bilan samarali kommunikatsiya o‘rnata olishi, ishonchli munosabatlarni shakllantira olishi hamda axloqiy mas’uliyatni namoyon etishi bilan belgilanishini ta’kidlaydilar. Mazkur qarashlar pedagogik ta’lim tizimida liderlikni rivojlantirish jarayonida faqat boshqaruv ko‘nikmalarini emas, balki kommunikativ, refleksiv va ijtimoiy kompetensiyalarni ham kompleks rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Dinh va hammualliflar (2014) tomonidan amalga oshirilgan fundamental ilmiy tahlilda esa 60 dan ortiq liderlik nazariyalari tizimli ravishda o‘rganilib, zamonaviy ilmiy qarashlarning evolyutsiyasi tahlil qilingan. Mualliflar bugungi kunda liderlik nazariyalarining markazida shaxsning individual xususiyatlari emas, balki uning jamoa bilan o‘zaro munosabatlari, hamkorlik madaniyati, ijtimoiy kapitali va o‘zgarishlarni boshqarish salohiyati turganligini ilmiy dalillar asosida ko‘rsatadilar. Bu holat pedagogik ta’lim tizimida liderlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda ham shaxslararo munosabatlar va ta’lim muhitining rolini kuchaytirishni taqozo etadi.

Xorijiy olimlarning liderlikni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlarining qiyosiy tahlili

Olim	Liderlikka bergan ta’rifi	Rivojlantirish omili	Pedagogik ahamiyati
P. G. Northouse (2022)	Liderlik – umumiy maqsadga erishish uchun guruhga ta’sir ko‘rsatish jarayoni.	Hamkorlik, ijtimoiy ta’sir, kommunikatsiya.	Talabalarda jamoa bilan ishlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish.
B. M. Bass (2008)	Liderlik motivatsiya va transformatsiya jarayonidir.	Ilhomlantirish, motivatsiya, innovatsiya.	Tashabbuskorlik va ijodkorlikni rivojlantirish.
D. V. Day (2001)	Liderlik rivojlanishi uzluksiz pedagogik jarayon.	Tajriba, refleksiya, amaliy faoliyat.	Kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish.
B. J. Avolio (2009)	Zamonaviy lider axloqiy va autentik bo‘lishi zarur.	Emotsional intellekt, qadriyatlar.	Pedagogning kasbiy madaniyati va etik kompetensiyasini rivojlantirish.
J. E. Dinh (2014)	Liderlik – murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimi.	Hamkorlik, ishonch, ijtimoiy kapital.	Pedagogik hamkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini yaratadi.

Shunday qilib, liderlik nazariyalarining tarixiy evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, ilmiy qarashlar individual sifatlardan boshlab, xulq-atvor, vaziyat, motivatsiya va ijtimoiy hamkorlikka asoslangan kompleks yondashuvlar tomon izchil rivojlangan. Bu evolyutsiya zamonaviy pedagogikada liderlikni tug‘ma fazilat sifatida emas, balki maqsadli tashkil etilgan ta’lim jarayonida shakllantiriladigan va rivojlantiriladigan kompetensiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida inson kapitalining sifati mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, liderlik salohiyatiga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalash va ularning yetakchilik sifatlarini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala

hisoblanadi. Bugungi kunda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislardan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki tashabbuskorlik, jamoani boshqarish, mas’uliyatli qaror qabul qilish hamda murakkab vaziyatlarda samarali harakat qilish kabi liderlik kompetensiyalari ham talab etilmoqda. Liderlik fenomeni uzoq yillar davomida psixologiya, pedagogika, menejment va sotsiologiya fanlari doirasida tadqiq etib kelinmoqda. Biroq globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlari liderlikka nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa liderlik sifatlarini rivojlantirishning ilmiynazariy asoslarini chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Liderlik tushunchasining nazariy asoslari

“Liderlik” tushunchasi inglizcha “leadership” so‘zidan olingan bo‘lib, boshqarish, yo‘naltirish va ortidan ergashtirish ma’nolarini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda liderlikka turlicha ta’riflar berilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyatida bir umumiy jihat mavjud: liderlik insonlarga ta’sir ko‘rsatish va ularni umumiy maqsad sari safarbar etish qobiliyatidir. Dastlabki liderlik nazariyalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan bo‘lib, ularda liderlik tug‘ma xususiyat sifatida talqin etilgan. Ushbu yondashuv vakillari ayrim insonlar tabiatan lider bo‘lib tug‘iladi, deb hisoblaganlar. Keyinchalik xulq-atvor nazariyalari yuzaga kelib, liderlikning samaradorligi shaxsning ma’lum xatti-harakatlari bilan bog‘liq ekanligi asoslandi. Vaziyatli liderlik nazariyalari esa liderlik samaradorligi muayyan sharoit va vaziyatlarga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlarda esa liderlik rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar majmui sifatida qaraladi.

Shaxs liderlik sifatlarining tarkibiy tuzilishi

Liderlik sifatlari murakkab psixologik-pedagogik tuzilma bo‘lib, bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topadi. Birinchi komponent — motivatsion komponentdir. U shaxsning maqsad sari intilishi, tashabbus ko‘rsatishi va natijaga erishishga bo‘lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi. Ikkinchi komponent — kommunikativ kompetensiyadir. Lider insonlar bilan samarali muloqot qila olishi, fikrini aniq ifodalashi va jamoada sog‘lom munosabatlarni shakllantira olishi zarur. Uchinchi komponent — tashkiliy qobiliyatdir. Bu sifat jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, vazifalarni taqsimlash va resurslardan oqilona foydalanishda namoyon bo‘ladi. To‘rtinchi komponent — emotsional intellektdir. Zamonaviy tadqiqotlar liderlik muvaffaqiyatining muhim qismi insonning o‘z hissiyotlarini boshqara olishi va boshqalarning emotsional holatini to‘g‘ri anglay olishiga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Beshinchi komponent — strategik tafakkurdir. Strategik fikrlash liderga uzoq muddatli maqsadlarni belgilash va ularga erishishning samarali yo‘llarini tanlash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta’lim jarayonida liderlik sifatlarini rivojlantirish uchun shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhimdir. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha usuli va keys-stadi texnologiyalari talabalarni mustaqil fikrlashga va mas’uliyatli qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Bundan tashqari, talabalarning ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki, volontyorlik faoliyati hamda talaba o‘zini o‘zi boshqarish tizimlarida faol qatnashishi ularning liderlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bunday faoliyatlar natijasida shaxsda mas’uliyat, tashabbuskorlik, ijodkorlik va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, liderlik zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning muhim shartlaridan biridir. Liderlik sifatlari tug‘ma xususiyat sifatida emas, balki ta’lim, tarbiya va ijtimoiy tajriba jarayonida shakllanadigan hamda rivojlanadigan murakkab kompetensiyalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxs liderlik sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish liderlarni tayyorlashning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ta’lim muassasalarida liderlikka yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali tashabbuskor, mas’uliyatli va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxsda liderlik sifatlarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy jihatdan muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar pedagog va bo‘lajak mutaxassislardan nafaqat chuqur kasbiy bilimga ega bo‘lishni, balki mustaqil fikrlash, tashabbus ko‘rsatish, jamoaviy faoliyatni tashkil etish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini ham talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, liderlik sifatlarining mazmuni, tarkibiy tuzilishi va rivojlanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Liderlikka oid ilmiy-nazariy manbalar tahlili mazkur hodisaning rivojlanishi bir necha konseptual bosqichlardan o‘tganini ko‘rsatadi. Dastlabki nazariyalarda liderlik shaxsning tug‘ma xususiyatlari bilan izohlangan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda uning xulq-atvor, vaziyat, motivatsiya va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Zamonaviy yondashuvlarda esa liderlik shaxsning individual salohiyati, kasbiy tayyorgarligi, kommunikativ madaniyati va jamoa bilan hamkorlik qilish qobiliyatlarini birlashtiruvchi murakkab kompetensiya sifatida talqin qilinadi.

P. G. Northouse qarashlarida liderlikning o‘zaro ta’sir va umumiy maqsad sari yo‘naltirish jarayoni sifatida izohlanishi uning pedagogik mohiyatini ochib berishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, ta’lim jarayonida liderlikni rivojlantirish talabalarni tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki jamoaviy faoliyatda tashabbus ko‘rsatuvchi, fikr almashuvchi va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qiluvchi faol ishtirokchilar sifatida shakllantirishni taqozo etadi.

B. M. Bass tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion liderlik konsepsiyasi esa shaxsni rivojlantirish, ichki motivatsiyani kuchaytirish va innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur nazariyaning pedagogik ahamiyati shundaki, liderlik faqat topshiriqlarni taqsimlash yoki jamoani boshqarish bilan cheklanmaydi. U boshqalarning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va umumiy maqsadga erishish uchun qulay ijtimoiy muhit yaratishni ham qamrab oladi.

D. V. Dayning liderlikni rivojlantirishga oid qarashlari ushbu jarayonning uzluksizligini asoslashga imkon beradi. Liderlik salohiyati bir martalik mashg‘ulot yoki nazariy bilimlar orqali to‘liq shakllanmaydi. U amaliy tajriba, o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish va turli ijtimoiy vaziyatlarda ishtirok etish orqali izchil rivojlanadi. Demak, ta’lim muassasalarida talabalar uchun mustaqil tashabbuslar, jamoaviy loyihalar va refleksiv faoliyat imkoniyatlarini yaratish liderlik sifatlarini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir.

XULOSA

Liderlik kompetensiyasi faqatgina boshqaruv qobiliyatini anglatmaydi, balki shaxsning kommunikativ madaniyati, tanqidiy va tizimli fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati, jamoada samarali faoliyat yuritishi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi hamda boshqalarni umumiy maqsad sari ruhlantira olish kabi ko‘nikmalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Mazkur kompetensiyalar tabiiy ravishda shakllanib qolmaydi, balki maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayon, qulay ta’lim muhiti va samarali pedagogik texnologiyalar asosida izchil rivojlantiriladi.

Talabalarda liderlik salohiyatini shakllantirishda interfaol ta’lim metodlari, loyihaviy faoliyat, debatlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda jamoaviy topshiriqlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar talabalarning tashabbuskorligini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish, muloqotga kirishish va jamoaviy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Northouse, P. G. Leadership: Theory and Practice. — 9th ed. — Los Angeles: SAGE Publications, 2022.

2. Bass, B. M., Riggio, R. E. Transformational Leadership. — 2nd ed. — Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006.

3. Day, D. V. Leadership Development: A Review in Context // The Leadership Quarterly. — 2001. — Vol. 11, No. 4. — P. 581–613.

4. Avolio, B. J., Walumbwa, F. O., Weber, T. J. Leadership: Current Theories, Research, and Future Directions

5. Dinh, J. E., Lord, R. G., Gardner, W. L., Meuser, J. D., Liden, R. C., Hu, J. Leadership Theory and Research in the New Millennium: Current Theoretical Trends and Changing Perspectives

6. Burns, J. M. Leadership. — New York: Harper & Row, 1978.

7. Greenleaf, R. K. Servant Leadership: A Journey into the Nature of Legitimate Power and Greatness. — New York: Paulist Press, 1977.

8. Goleman, D. What Makes a Leader? // Harvard Business Review. — 1998. — Vol. 76, No. 6. — P. 93–102.

9. Fayol, H. General and Industrial Management. — London: Pitman, 1949.

10. Weber, M. The Theory of Social and Economic Organization. — New York: Oxford University Press, 1947.